



STREAMS IN THE TERRITORY OF THE FORISH DISTRICT AND THEIR ECOLOGICAL CONDITION

Nilufar Erkinova

student

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Forish district, Nurota mountains, Osmonsoy, Qolbasoy, Uchmasoy, Ukhumsoy, Majrumsoy, stream basin, ecological status.

Received: 26.03.25

Accepted: 28.03.25

Published: 30.03.25

Abstract: This article studies and analyzes the streams of the Nurota Mountains, which occupy the central part of the Forish district, and their impact on the environment, as well as their ecological status, from a scientific and practical perspective.

FORISH TUMANI HUDUDIDAGI SOYLAR VA ULARNING EKOLOGIK HOLATI

Nilufar Erkinova

talaba

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Forish tumani, Nurota tog'lari, Osmonsoy, Qo'lbosoy, Uchmasoy, Uxumsoy, Majrumsoy, soy havzasi, ekologik holati.

Annotatsiya: Mazkur maqolada, Forish tumani markaziy qismini egallagan Nurota tog'lari soylari va ularning atrof-muhitga ko'rsatayotgan ta'sirlari, ekologik holati, ilmiy-amaliy jihatdan o'rganilgan va tahlil qilingan.

ВОДОТОКИ НА ТЕРРИТОРИИ ФОРИШСКОГО РАЙОНА И ИХ ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ

Нилуфар Эркинова

студент

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Фаришский район, Нуратинские горы, Осмонсой, Кулбасой,

Аннотация: В данной статье с научной и практической точки зрения

Учмасой, Ухумсой, Маджрумсой, бассейн ручья, экологическое состояние.	изучаются и анализируются водотоки Нуратинских гор, занимающих центральную часть Форишского района, и их влияние на окружающую среду, а также их экологическое состояние.
--	---

Kirish qismi. Forish tumani - Jizzax viloyati tarkibiga kiruvchi 12 ta tumandan biri bo'lib, 1935-yil 9-fevralda tashkil topgan. 1962-yilda tuman Nurota va Jizzax tumanlari tarkibiga qo'shib yuborilgan. 1964-yilga kelib qayta tashkil etilgan. Forish tumani dastlab Samarqand, 1964-yil Sirdaryo, 1974-yilga kelib esa Jizzax viloyati tarkibiga kiritilgan. Chegaradosh hududlari shimol va shimoli-sharqdan Qozog'iston, sharqdan Sharof Rashidov, Zafarobod, Arnasoy, Do'stlik, Mirzacho'l tumanlari, janub tomondan G'allaorol tumani, g'arbdan esa Samarqand, Navoiy viloyatlarining Qo'shrabot, Nurota tumanlari bilan chegaradosh. Maydoni 9,53 ming km², aholisi 93,500 kishi (2020-yil holatiga ko'ra^[1]) tashkil qiladi.

Tuman iqlimi keskin kontinental. Yozi issiq va quruq, qishi sovuq. Yillik o'rtacha harorat 14,5°C, yanvarning o'rtacha harorati -1,5°C, eng past harorati - 32°C, iyulning o'rtacha harorati 29,5°C, eng yuqori harorati 46°C. Yiliga o'rtacha 340- 360 mm (shimoli-sharqida 240-260 mm, janubi-g'arbida 459-480 mm) yog'in yog'adi. Vegetatsiya davri 216-218 kun. Adirlar qumtosh, qum, mergel va lyosslardan tashkil topgan, ayrim joylar chag'ir toshlar bilan qoplangan. Soylik, jar va yozda qurib qoladigan soylar ko'p. Bahorgi yog'ingarchilik paytida soylarda suv to'lib oqadi.

Adirlarning tuprog'i gipsli bo'z, o'tloqi bo'z, qumoq, qumloqlar, sho'rxok va sho'rlangan tuproqlar tarqalgan. Nurota tog'laridan oqib keladigan Ustixonsoy, Osmonsoy, Bolamansoy, Uxumsoy, Hayotsoy, Oqtoshsoy, Kattasoy, Chorvoqsoy va boshqalarlardan tog' etaklaridagi lyossli qiya tekisliklarni sug'orishda foydalaniladi.

Asosiy qismi. Forish tumanini markaziy qismlarini egallagan Nurota tog'larida turli xil uzunlikga ega bo'lgan soylar oqishini kuzatishimiz mumkin. Bu soylar mavsumiy qor, yomg'ir va yer osti suvlaridan to'yinadi. Soylarning eng yiriklari va sersuvlari Osmonsoy, Qo'lbasoy, Uchmasoy, Uxumsoy, Majrumsoy va Sintobsoylar hisoblanadi.

Osmonsoy Nurota tog'larining sharqiy qismi hisoblangan Qo'ytosh tog'ining eng baland joylaridan oqib tushadi. Soyning uzunligi (tog'dan chiqish joyiga qadar) 13 km, suv yig'ish maydoni 30 km², o'rtacha yillik suv sarfi esa 0,200 m³/sek ga yaqin.

Qo'lbasoy Nurota tog'idagi Savurbel dovoni yaqinidan boshlanadi. Uning uzunligi 10 km, suv yig'ilish maydoni 33 km², o'rtacha yillik suv sarfi 0,140 m³/sek dan ortiq. Bu soy Forish tumanining markazi bo'lgan Bog'donni suv bilan ta'minlaydi. Soyning yuqori oqimi ichimlik uchun yaroqli bo'lib, o'rta va quyi qismlari aholining ta'sirida ifloslanib, ichimlik uchun yaroqsiz holga kelib qolgan.

Uchmasoy Qo'lbasoydan biroz g'arbda joylashgan. Uning uzunligi 10 km, suv yig'adigan maydoni 40 km². Bu soyda o'rtacha ko'p yillik suv sarfi 0,200 m³/sek ni tashkil qiladi.

Uxumsoy Nurota tog'ining eng baland markaziy qismidan oqib tushadi. Uning uzunligi 11 km, suv yig'ish maydoni 73 km². Eng sersuv hisoblangan bu soyning o'rtacha ko'p yillik suv sarfi 0,430 m³/sek. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Uxumsoy Forish tumani hududidagi soylar orasida, sersuvligi va havzasining kattaligi bilan ajralib turadi. Lekin so'ngi yillarda antropagen omillar ta'sirida, soy havzasi ekologik holati yomonlashib borayotganligi kuzatilmoqda.

Majrumsoy Uxumsoydan g'arbroqda joylashgan. Bu soyning uzunligi 15 km, suv yig'ish maydoni 47 km², o'rtacha yillik suv sarfi esa 0,140 m³/sek.

Sintobsoy ham Nurota tog'ining eng baland joyidan oqib tushadigan yirik va sersuv soylaridandir. Uning uzunligi 16 km, suv yig'ish maydoni 74 km², o'rtacha ko'p yillik suv sarfi esa 0,170 m³/sek (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Nurota tog' soylarining morfometrik ko'rsatkichlari

№	Soylar	Uzunligi, km	Havzasi, km ²	O'rtacha yillik suv sarfi, m ³ /sek.
1	Osmonsoy	13	30	0,200
2	Qulbasoy	10	33	0,140
3	Uchmasoy	10	40	0,200
4	Uxumsoy	11	73	0,430
5	Majrumsoy	15	47	0,140
6	Sintobsoy ¹	16	74	0,170
Soylarning umumiy ko'rsatkichlari		75	297	1,280

Sintobsoy ma'muriy jihatdan Navoiy viloyatiga qaraydi

Osmonsoy, Qulbasoy, Uchmasoy, Uxumsoy va boshqa bir qancha kichik soylar yer osti suvlaridan to'yinadi. Shuning uchun bu soylarda suv miqdori yil davomida ancha kam o'zgaradi, u faqat sharros yomg'irlar va mavsumiy qorlar tez erigan vaqtlarda keskin ko'payishi mumkin.

Majrumsoy va Sintobsoylari yomg'ir va qor suvlardan to'yinadi, ularning to'yinishida yer osti suvlarining hissasi ancha kam. Chunki bu soylarning suv yig'ish maydoni asosan suvni yomon o'tkazadigan jinslardan tuzilgan. Shu sababdan qor erigan va ayniqsa yomg'ir ko'p yoqqan vaqtlar soylarda suv juda ko'p oqadi, boshqa vaqtlarda esa suvi keskin ravishda kamayib ketadi.

Hozirgi kunda Uxumsoy va Andaginsoy suvlaridan unumli foydalanish maqsadida mahalliy ahollar tomonidan gidravlik nasoslari o'rnatgan. Gidravlik nasoslari soy suvlarini tepalikka yetkazib beradi. Gidravlik nasosining asosiy foydali jihatlari:

- elektr quvvati va yonilg'isiz ishlaydi;
- arzon va sodda texnologiya;
- katta bo'lmagan suv oqimlari sharoitida ham ishlaydi;

- suvni 30 metr balandlikga ko'tarib beradi;
- 1 ta gidravlika nasosi yordamida 1 sutkada 4320 litrdan 6000 litrgacha suvni tepalikka ko'tarib berish mumkin. Bu texnologiyadan Uxum, Andagin, Sintob va Yonbuloq qishloqlari ichimlik suvi va yerlarni sug'orishda foydalanmoqda.

Forish tumani Nurota tog'laridagi soylar tog' oldi tekisligi tomon harakatlangani sababli, tog' va tekislik o'rtasidagi moddalarning aylanib yurishida muhim rol o'ynaydi. Tog' soylarining manbai va mansabi o'rtasidagi nishablikning kattaligi tufayli, suv eroziyasi doimiy ravishda bo'lib turadi. Suv eroziyasi natijasida soylarning yonbag'ir va o'zanlardagi jinslar yemirilib boradi. Yemirilgan jinslarni granulometrik qatlamlar bo'yicha joylashishi kuzatilganda, diametri katta bo'lgan g'o'la-toshlarni soyning yuqori oqimida, shag'al qumlarni o'rta oqimida, mayda qumlarni quyi oqimida to'planishi aniqlandi. Nurota tog'lari suv oqimi ta'siri bo'lmagan yonbag'irda granulometrik qatlam joylashida diametri katta jinslar quyi qismida, diametri kichik bo'lgan jinslar esa, aksincha, yuqori qismida joylashganligi kuzatiladi.

Nurota tog'laridagi granulometrik qatlam joylashishini o'rganish natijasida, tabiiy ravishdagi granulometrik qatlam joylashishiga yer usti oqimi ta'sirida shakllangan granulometrik qatlam joylashishi qarama-qarshi holda rivojlanayotganligi aniqlandi. Nurota tog'laridan oqib tushuvchi soylar, o'z navbatida tog' oldi tekisligi mikro reylefini shakllanishida va lyossimon tuproqlar maydonni kengayishiga ta'siri kuchli bo'lmoqda.

Yuqorida Forish tumani hududidagi eng yirik soylar haqida ma'lumotlarni keltirib o'tildi. Yirik soylar o'z navbatida kichik soy yoki jilg'alarining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Shu sababli ham tuman hududidagi kichik soy yoki jilg'alarni ham atroflicha o'rganish lozim.

Hozirgi vaqtda Forish tumani hududidagi soy suvlaridan oqilona foydalanish bilan bog'liq bo'lgan bir qator ilmiy, tashkiliy va xo'jalik muammolari paydo bo'lgan. Shular jumlasiga:

- soy suvini batafsil o'rganish, boyliklarini to'liq hisobga olish, baholash va unumli foydalanish yo'llarini ilmiy asoslash;
- soy suvlarini jilovlash va suv omborlari qurish;
- soy suvini bug'lanish, yerga singish, transpiratsiyaga sarf bo'lishini kamaytirish;
- buloqlarning bekilib qolishiga yo'l qo'ymaslik;
- sel hodisalariga qarshi tadbiriy choralarni amalga oshirish;
- soy suvidan lalmikor dehqonchilikda foydalanish;
- soylarda baliqchilikni rivojlantirish;
- soy suvi ifloslanishiga qarshi kurashish;
- soy havzalarini ekologik holatini yaxshilash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Джизакская область. Справочная политико-административная карта. Масштаб 1:500 000. Ташкент. Госкомгеодезкадастр, 2009 год. [ISBN 978-9943-15-058-4](#)
2. Ғўдалов М.Р. Жиззах вилояти табиатини муҳофаза қилиш. Тошкент: “Фан ва технология”, 2014
3. G‘o‘dalov M.R., Muxamedov O.L. Tabiatni muhofaza qilish: muammo va yechimlar. Guliston 2021 y
4. Хакимов Қ., Ғўдалов М. Жиззах вилояти географияси. – Жиззах: Сангзор, 2006.